

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yilda o'z faoliyatiga oid hisoboti

1. Hisobot yilida davlat organi yoki tashkiloti o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish va olib borishda asosiy e'tibor qaratilgan soha hamda yo'nalishlar.

2025-yilda O'zbekistonning oliy va kasbiy ta'lim, fan hamda innovatsiyalar sohalarida quyidagi asosiy yo'nalishlarda muhim islohotlar amalga oshirildi:

Oliy ta'lim:

- Ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish, yangi raqamli texnologiyalar va interaktiv o'quv platformalarini joriy etish.
- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va innovatsion ilmiy tadqiqotlar uchun yangi grantlar, stipendiyalar tizimini ishlab chiqish.
- Universitetlar, ilmiy markazlar va sanoat o'rtasidagi integratsiyani rivojlantirish hamda ilmiy loyihalarni tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Kasbiy ta'lim:

- Sanoat talablariga mos keladigan kasbiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.
- Zamonaviy texnologiyalar, robototexnika, avtomatlashtirish va boshqa innovatsiyalar asosida o'quv kontentini yangilash.
- Sanoat bilan o'quv muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, amaliyot va stajirovka dasturlarini yo'lga qo'yish.

Fan va innovatsiyalar:

- Ilmiy tadqiqotlar uchun moliyaviy resurslarni oshirish, yangi grantlar va investitsion dasturlarni joriy etish.
- Ilmiy-tadqiqot institutlarini modernizatsiya qilish va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan infratuzilmani mustahkamlash.
- Innovatsion startaplar, texnologik parklar va inkubatorlarni tashkil etish hamda ilmiy yutuqlarni tijoratlashtirish jarayonini qo'llab-quvvatlash.

Ushbu islohotlar respublika hamda xalqaro miqyosda ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohalarida yangi salohiyatni ochib berish, yoshlar va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish va iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy hissa qo'shishga qaratilgan.

2. Davlat organi yoki tashkiloti tashabbusi bilan o'z faoliyati hamda muayyan sohani takomillashtirish (tartibga solish) yuzasidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar, joriy etilgan yangi mexanizmlar hamda ularning ijro holati haqidagi ma'lumotlar.

2025-yilda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasini tartibga soluvchi jami **53 ta** normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ulardan:

- O'zbekiston Respublikasi Qonunlari – **2 ta**;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari – **3 ta**;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari – **12 ta**;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari – **18 ta**;
- Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar – **18 tani** tashkil etadi.

Sohalar kesimida:

- Ta'lim sifatini ta'minlashga oid – **4 ta**;
- Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishga oid – **10 ta**;
- Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishga oid – **3 ta**;
- Pedagog maqomiga oid – **5 ta**;
- Talaba va o'quvchilar masalalariga oid – **5 ta**;
- Oliy ta'lim tizimiga oid – **5 ta**;
- Kasbiy ta'lim tizimiga oid – **9 ta**;

O'rta maxsus ta'lim tizimiga oid – **4 ta**;

Moliyaviy masalalarga oid – **3 ta**;

Boshqalar – **5 ta**.

Ushbu hujjatlarda belgilan vazifalar ijrosi natijasi o'laroq:

oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi global konvensiya (*Parij, 2019-yil 25-noyabr*) **ratifikatsiya** qilindi;

pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlarining talabalari uchun **Abdulla Avloniy nomli davlat stipendiyasi** joriy etildi;

kasbiy ta'limda boshqaruv yanada takomillashtirilib, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida **Kasbiy ta'lim agentligi** tashkil etildi;

8 ta yangi oliygohni tashkil etish bo'yicha maxsus qaror qabul qilindi;

kompleks davlat akkreditatsiyasi har 5 yilda ta'lim tashkilotlarini tashqi baholash natijalari asosida o'tkaziladigan bo'ldi;

maxsus davlat akkreditatsiyasi kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgan ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin o'tkaziladi;

oliy ta'lim tashkilotlari talabalari uchun tayyorlangan o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish uchun respublikada faoliyat yurituvchi davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari, xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari, shuningdek, oliy harbiy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilar faqat Davlat xizmatlari markazi yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilish tartibi joriy etiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Hukumat qarorlari hamda yuqori turuvchi organ topshiriqlarining ijro holati.

Prezident topshiriqlari ijro holati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi "Ijro.gov.uz" tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **472 ta** hujjati kelib tushgan bo'lib, shundan **82 tasi** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, **280 tasi** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, **7 tasi** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoyishi va **103 tasi** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yig'ilish bayonlari hisoblanadi.

Mazkur hujjatlarda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga **2511 ta**, shundan Prezident Farmonlarida **445 ta**, Prezident qarorlarida **1779 ta**, Prezident Farmoyishida **21 ta**, Prezidenti yig'ilish bayonlarida **266 ta** topshiriqlar belgilangan.

"Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlaridan **2463 tasi** belgilangan muddatda bajarildi, **48 tasi** muddatidan kech bajarildi.

Prezident Administratsiyasi rahbari topshiriqlari ijro holati


2025-yil yanvar-dekabr oylarida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga "Ijro.gov.uz" tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining **56 ta** hujjati kelib tushgan bo'lib, shundan **45 tasi** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari rezolyutsiyasi.

Mazkur hujjatlarda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga **134 ta** topshiriq belgilangan, shulardan **65 tasi** belgilangan muddatda bajarildi, **9 tasi** muddatidan kech bajarildi.

Hukumat topshiriqlari ijro holati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga "Ijro.gov.uz" tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi Hukumatning **480 ta** hujjati kelib tushgan bo'lib, shundan **73 tasi** Vazirlar Mahkamasi qarori.

Mazkur hujjatlarda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga **73 ta** Vazirlar Mahkamasi qarorlarida topshiriq belgilangan. Shulardan Hukumat hujjatlarida belgilangan topshiriqlardan **69 tasi** belgilangan muddatda bajarildi, **4 tasi** muddatidan kech bajarildi.



4. Davlat organi yoki tashkilotining o'z faoliyat yo'nalishidan kelib chiqadigan sohalar (yo'nalish) bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda kelgusi istiqbolda bajarilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar.

Oliy ta'lim sohasida:

Hududiy va kadrlar tayyorlash ixtisoslashuvi jihatidan yaqin bo'lgan **29 ta** oliygoh negizida **12 ta** yangi oliygoh faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning soni **207 taga** yetdi.

Misol uchun, **Toshkent shahrida N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti filiali** hamda Fransiyaning yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda **O'zbek-Fransuz universiteti** tashkil etildi;

oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni 2017-yilda **280 mingga** yaqin bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ushbu ko'rsatkich **1,7 mln.ga** yetdi (*o'sish – 6 barobar*);

2025/2026 o'quv yili uchun respublika davlat oliy ta'lim tashkilotlariga jami **217 276 ta**, jumladan, bakalavriatga **195 327 ta** va magistraturaga **21 949 ta** umumiy qabul parametrlari tasdiqlandi;

2025/2026 o'quv yilidan boshlab magistratura mutaxassisliklari bo'yicha **kechki va masofaviy ta'lim** shakllarida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi;

2025-yilda yoshlarni oliy ta'lim bilan **qamrov darajasi 44 foizga** yetdi;

Oila va xotin-qizlar qo'mitasining tavsiyanomasini olgan, oliy ma'lumotga ega bo'lmagan **xotin-qizlar uchun** bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul parametrlariga qo'shimcha **2 000 ta** davlat granti 2025/2026 o'quv yili uchun **2 barobarga** oshirilib **4 000 ta** etib tasdiqlandi;

2025/2026 o'quv yili uchun **"Kambag'al oilalar reyestri"**ga kiritilgan oilalar farzandlari uchun **10 foizli qo'shimcha** davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga **3 550 ta** ta'lim grantlari kvotasi tasdiqlandi;

OLIV TA'LIM BILAN QAMROV



2025/2026 o'quv yilida 52 ta oliygohga kirish uchun o'tkazilgan 152 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha **kasbiy (ijodiy) imtihon dasturlari va baholash mezonlari** tasdiqlandi;

2025/2026 o'quv yilidan boshlab abituriyentlarga 5 ta ta'lim yo'nalishiga qo'shimcha ravishda **6-ta'lim yo'nalishini** tanlash imkoniyati berildi;

mutaxassisligi bo'yicha kamida **5 yil mehnat stajiga** ega, lekin **oliy ma'lumotga ega bo'lmagan** xotin-qizlar uchun to'lov-kontrakt asosidagi **500 ta** qabul parametrlari **5 barobarga** oshirilib, 2025/2026 o'quv yili uchun **2 500 ta** etib tasdiqlandi;

shu yilning o'zida **magistraturada** tahsil olayotgan **11 ming nafar** xotin-qizlarimizning kontrakt-to'lovlari qoplab berish uchun byudjetdan **122 milliard so'm** mablag' ajratildi;

32 ta xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari hamda **74 ta** nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari uchun ajratilgan **1 200 ta davlat granti kvotasi 1 320 taga** oshirildi;

xorijiy talabalar soni **20 ming** nafardan oshdi;

TOP-500 ga kirgan **7 ta** xorijiy oliy ta'lim tashkiloti bilan kelishuvlarga erishilib, ular bilan hamkorlikda **17 ta qo'shma ta'lim dasturining** qabul kvotalari tasdiqlandi;

davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan **11 161 nafar** xotin-qizlarning o'qish xarajatlari uchun **122,7 mlrd.so'm** mablag' to'lab berildi.

15 ta oliy ta'lim muassasasidagi **45 ta** ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi;

TOP-300 ga kirgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida davlat oliy ta'lim muassasalaridagi yuqori kurslarning **4 000 tadan** ortiq o'quv dasturlari takomillashtirildi;

professor-o'qituvchilardan **6 139 nafari xorijda** malaka oshirdi, **3 859 nafar xorijiy** professor-o'qituvchilar o'quv jarayoniga jalb etildi;

307 nafar professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va **120 nafari** talabalar ishtirokida respublikaning **7 ta energiya resurslarini iqtisod qilish masalasini** ilmiy asosda o'rganish amalga oshirildi;

respublikaning **14 ta** hududidagi **80 ta** oliy ta'lim muassasasida **"O'zmilliybank"** AJning **"Kelajakka qadam"** markazi filiallari tashkil etildi va **4 806 nafar** bitiruvchi talabalarning biznes loyihalari **219,2 mlrd so'm** miqdorida imtiyozli shartlarda moliyalashtirilishi ta'minlandi;

“Kelajakka qadam” dasturi doirasida Toshkent shahri va Samarqand viloyatida **“TalabaExpo – 2025”** kasb ko'rgazmasi tashkil etilib, unda jami **171 ming nafar** bitiruvchi talabalar hamda **2 700 dan** ortiq yirik tashkilotlar, tijorat banklari va tadbirkorlar bo'sh ish o'rinlari bilan ishtirok etdi.

bitiruvchilarning **63 364 nafari** ish beruvchilar bilan suhbatlashib, ularning **17 535 nafari** o'ziga mos ish o'rnini topdi, shuningdek, **1 806 nafar** talaba o'z biznes loyihalarini taqdim etib, tadbirkorlikka yo'naltirildi;

bakalavriatining kunduzgi ta'lim shakliga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan talabalar uchun **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti tanlovi** o'tkazilib, **23 nafar** talabaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti taqdim etildi;

xalqaro fan olimpiadalarda **72 ta** (11 ta oltin, 24 ta kumush, 37 ta bronza) medal qo'lga kiritildi;

“Study in Uzbekistan” veb-portalidan **980 dan** ortiq xorijiy talabalar tomonidan O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun ariza topshirdi;

“Registrator ofis”lari tomonidan talabalarga **6 ta** yo'nalishda **737 066 ta** xizmat ko'rsatildi;

davlat xususiy sheriklik asosida hamda oliy ta'lim muassasalari **mablag'lari** hisobidan **20 ta** oliy ta'lim tashkilotida **12 084 o'rinli 22 ta** talabalar turar joylari qurib foydalanishga topshirildi;

oliy ta'lim muassasalarining o'z mablag'lari hisobidan **10,5 ming o'rinli** yangi o'quv binolari qurib, foydalanishga topshirildi;

2025-yil davomida jami **20 ta xalqaro darajadagi tadbir** (ta'lim va rektorlar forumlari, davra suhbatlari, ko'rgazma va konferensiyalar) o'tkazildi. Ular qatorida uchta tadbir tegishliligi bo'yicha **5 ta** xorijiy davlat (Malayziya, Gruziya, Buyuk Britaniya, Latviya va Germaniya) bilan sohadagi hamkorlikda ilk bora tashkil etildi.

Ushbu xalqaro tadbirlar doirasida **U-2-U** (Universitet-Universitet) shaklida rektorlar, shuningdek, kasbiy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish vakillari bilan uchrashuvlari o'tkazilib jami **400 dan** ortiq **shartnoma, memorandum va bitimlar** imzolandi. Tadbirlarda jami **500 dan** ziyod xorijiy oliy va kasbiy ta'lim muassasalaridan rektor va prorektorlar darajasida delegatsiyalar ishtirok etdilar.

10 ta xalqaro darajadagi (hukumatlararo va idoralararo) hujjat imzolandi (*Malayziya, Pokiston, Ozarbayjon, Mongoliya, Serbiya, Sloveniya, Rossiya, Germaniya, Fransiya, YUNESKO*).

Tizim faoliyatini takomillashtirish bo'yicha **36 ta** hujjat tasdiqlandi, jumladan, **2 ta** Qonun, **6 ta** Prezident Farmoni, **12 ta** Prezident qarori, **16 ta** Hukumat qarori **qabul qilindi** hamda Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi **global konvensiya** (Parij, 2019-yil 25-noyabr) ratifikatsiya qilindi.

Ilm-fan va innovatsiyalar sohasida:

oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyati **50 foizga** (yil boshida **45 foiz**), **“Scopus”** va **“Web of Science”** bazalarida maqolalar soni **7 551 taga** yetkazildi;

2026-yilda oliy ta'limdan keyingi ta'limning tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) shakli yil uchun stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktoranturaga jami **5 300 ta** (o'tgan yilga nisbatan **50 ta** ko'p) ajratildi. Xususan: doktoranturaga **4 900 ta** (*DSc-726, PhD-4 174*), stajyor-tadqiqotchilik uchun **400 ta** kvota ajratildi;

Ajratilgan jami kvotaning **64,3 foizi** (o'tgan yilda **40,8 foiz**), jumladan, doktoranturaga **3 411 ta** (*DSc-441, PhD-2693*) stajyor-tadqiqotchilik uchun **277 ta** kvota **ustuvor yo'nalishlarga** mos ixtisosliklarga yo'naltirildi;

Shuningdek, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida **22 ta** tanlov e'lon qilindi. Shundan ilmiy faoliyatga oid davlat **7 ta** xalqaro qo'shma loyihalar tanlovidir.

Joriy yilda umumiy qiymati **577,1 mlrd so'm** miqdoridagi **323 ta** loyihalar moliyalashtirildi. Shundan, **64 ta** fundamental, **214 ta** amaliy va **43 ta** innovatsion loyihalar. Shuningdek, **217,95 mlrd** qiymatidagi **434 ta** davom etayotgan loyihalar moliyalashtirildi.

Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida e'lon qilingan xalqaro qo'shma loyihalar tanlovi natijalariga ko'ra umumiy qiymati umumiy qiymati **112,4 mlrd so'm** miqdoridagi **66 ta** loyihalar moliyalashtirildi.

Natijada qiymati **51,83 mlrd so'm** bo'lgan innovatsion mahsulot (xizmat)lar tijoratlashtirilib, davlat byudjetiga **6,2 mlrd so'm** miqdorida soliq to'landi.

Ilmiy tashkilotlarni zamonaviy ilmiy laboratoriyalar bilan jihozlash bo'yicha o'tkazilgan xaridlar natijasida **3,48 mln AQSH dollar** bo'lgan **133 ta** laboratoriya asbob-uskunalarini yetkazib berish bo'yicha g'olib ijrochilar bilan **shartnomalar** tuzildi.

Yangi **spin off** (spin-off) korxonalar soni **30 ta** yetkazildi.

Ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirilgan yangi ishlanmalar soni **300 taga** yetdi.

Ilm-fan va innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan yangi ishlanmalar va texnologiyalar soni **250 tani** tashkil etdi.

Akademik harakatchanlik" dasturi doirasida **4,43 mlrd so'mlik 64 ta loyiha** (*o'sish: 4,9 barobar*) moliyalashtirildi.

Yosh olimlarning qisqa muddatli ilmiy stajirovkalar tanlovlari tashkil etilib, **145 nafar** yosh olim **12 ta** (*Xitoy, AQSH, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Italiya kabi*) xorijiy mamlakatga ilmiy stajirovkalarga yuborildi.

Startup loyihalar tanlovlari orqali **69 mlrd so'mlik 121 ta** startup loyihalar moliyalashtirildi.

Natijada **106 ta** innovatsion korxonalar faoliyati yo'lga qo'yildi va **847 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi. Shuningdek, **2,1 mln AQSH dollari** miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi.

Shuningdek, respublika miqyosida yoshlarning startup loyihalarini shakllantirish hamda startup loyihalarga investitsiya jalb qilish maqsadida barcha hududlarda **"Startup festivali"** tashkil etildi.

Hududlarning innovatsion salohiyatini oshirish maqsadida **4 ta** texnologik parklar, **3 ta** ventchur fondi, **2 ta** Biznes-inkubatorlar va akseleratori va **3 ta** Innovatsiya markazlari markaz tashkil etilib, hududlardagi innovatsion faoliyat infratuzilmalari soni **67 taga** yetkazildi. Xususan, Namangan, Farg'ona, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida **4 ta Yoshlar texnoparklari**, **3 ta ventchur fondi**, **3 ta** Toshkent viloyatidagi tashkil etilgan "IT Camp" MCHJning **Innovatsiya markazi**, "Voice Solutions VB" MCHJning **Innovatsiya markazi**, "Nurafshon Tech Academy" nodavlat ta'lim muassasasining **Innovatsiya markazi**, **2 ta** Jizzax viloyatidagi tashkil etilgan "Robolab" MCHJ huzuridagi "Robolab" **biznes inkubator va akselerator markazi**, "IT Progress Software" MCHJ huzuridagi **biznes inkubator va akselerator markazi** tashkil etildi.

Mo'ynoq tumani markazidan **65 km** uzoqlikdagi hududda, ya'ni Orol dengizining qurigan tubida **Ilmiy-tadqiqot stansiyasi** tashkil etildi. Orol dengizining qurigan tubida uchraydigan muammolarning ilmiy yechimiga qaratilgan amaliy tadqiqot va innovatsion loyihalar tanlovi e'lon qilinib, umumiy qiymati **57,1 mlrd so'mlik 21 ta** loyiha moliyalashtirildi.

Shular bilan bir qatorda, loyihalarni amalga oshirishga ishtirok etadigan olim va mutaxassislar uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish maqsadida jami **24 ta yashash konteynerlari** o'rnatildi.

2025-yil **9-11-oktyabr** kunlari Toshkent shahrida **"InnoWeek-2025"** xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi o'tkazilib, unda jami **30 ta** ilmiy-amaliy tadbirlar (**18 ta xalqaro va 12 ta mahalliy**) tashkil etilib, ularda jami **8 800 nafar** mahalliy va **140 dan** ortiq xorijiy mehmonlar ishtirok etdi.

“InnoWeek-2025” doirasida tashkil etilgan **xalqaro ko‘rgazmada 300 dan** ortiq mahalliy va xorijiy korxona, oliy ta‘lim, ilmiy hamda innovatsion infratuzilma tashkilotlari jami **830 dan** ortiq **turdagi** ishlanma va mahsulotlari bilan ishtirok etdi.

Ko‘rgazma yakunlariga ko‘ra, qiymati **51,04 mlrd so‘m** bo‘lgan **45 ta** oldi-sotdi shartnomasi, qiymati **9,73 mln AQSH dollari** bo‘lgan **4 ta** eksport shartnomasi, qiymati **300 ming dollar** bo‘lgan **2 ta** grant shartnomasi, ilm-fan va texnologiyalar transferi bo‘yicha **9 ta** kelishuv va memorandum imzolandi.

Haftalik doirasida, **jami 46 nafar** yoshlar, shundan **26 nafari “Innovatsion g‘oyalar yetakchisi”** ko‘krak nishoni bilan hamda **20 nafari “Eng kreativ g‘oya”, “Eng dolzarb ishlanma”** nominatsiyalari bo‘yicha taqdirlandi.

“Ixtirochilik va ratsionalizatorlik” ko‘rik-tanlovi respublika bosqichida **3 nafar** g‘olib aniqlandi va ular mos ravishda **123,6 mln, 103 mln va 82,4 mln so‘mlik sertifikatlar** hamda esdalik **sovg‘alari bilan taqdirlandi**.

2025-yil yakunlariga ko‘ra **6 276 ta** (PhD — **5 356 ta** DSc — **920 ta**) doktorlik dissertatsiyasi himoyalari bo‘ldi.

Oliy ta‘lim muassasalarida **14 ta** (yashil energetika, mashinasozlik, sun‘iy intellekt, transport, qurilish va sanoat) muhandislik maktablari tashkil etildi.

Muhandislik sohasida **“Kelajak muhandislari”** xalqaro festivali, **“Eng yaxshi g‘oya, loyiha va ixtiro”** respublika tanlovlari tashkil etilib, ularning doirasida **3262 nafar** yosh muhandislar jalb etildi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy sohada:

“Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida oliy ta‘lim tashkilotlari tomonidan reja-grafik bo‘yicha **2 ming 115 ta** ma‘naviy-ma‘rifiy, tashkiliy va sport tadbirlari tashkil etilib, jami **317 ming nafar** talaba-yoshlar qamrab olindi;

2025-yil may oyida **“Sportchi – yurt himoyachisi!”** shiori ostida sport oyligi doirasidagi **12 ta** olimpiya sport turlari bo‘yicha **2 ming 360 ta** sport musobaqalarida jami **201 ta** oliy ta‘lim tashkilotlarining **552 ming** nafarda ziyod talaba-yoshlar qamrab olindi;

oliy ta‘lim muassasalari da **9 ta** sport turi bo‘yicha **“Talabalar ligasi”** sport musobaqalarida **286 156 nafar** talabalar ishtirok etdi;

17 ta sport turi bo‘yicha o‘tkazilgan **“Universiada”** sport musobaqalarida jami **332 978 nafar** talaba sportchilarning ishtiroki ta‘minlandi;



“Ma‘rifat ulashib” va **“Adabiy-ma‘rifiy haftaliklar”** loyihalari doirasida tadbirlarga **277,8 ming nafar** talaba va o‘quvchilar qamrab olindi;

oliy ta'lim tashkilotlarida **2025-yil** davomida **"Milliy qadriyatlar va ularning millat ma'naviyatidagi o'rni"** shiori ostida o'tkazilgan tadbirlarda jami **586 ming nafar** talaba, **64 ming 277 nafar** professor-o'qituvchilar qamrab olindi.

O'rta maxsus ta'lim sohasida

O'tgan 2024/2025 o'quv yilida **71 ta** akademik litseyi jami **12 546 nafar** o'quvchilar bitirdi. Shundan, **2 353 nafar** o'quvchilar **a'lo darajali diplom**, **266 nafar** o'quvchilar **oltin medal**, yana **171 nafar** o'quvchilar **kumush medal** bilan taqdirlanishdi.

Akademik litsey bitiruvchilarining OTMga o'qishga kirish ko'rsatkichlari **93 foizni** tashkil etdi. Shundan 10 dan ortiq akademik litseylarda **99–100 %** bitiruvchilar talaba bo'lishdi.

Kasbiy ta'lim sohasida

Bugungi kunda **595 ta** texnikumlarda **329 ta** kasb va mutaxassislik bo'yicha **437,8 ming nafar** yoshlar ta'lim olmoqda.

Shuningdek, **52 ta** xususiy tibbiyot texnikumlari mavjud bo'lib, ularda tibbiyot sohasida o'rta bo'g'in kadrlari tayyorlanmoqda.

508 ta texnikumda **17 040 ta** korxona va tashkilot bilan **67,4 ming nafar** o'quvchi **140 ta** kasb bo'yicha **dual ta'limda** o'qitilmoqda.

Germaniya, Angliya, Shveysariya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda **47 ta** texnikumda **xalqaro ta'lim dasturlari asosida 4 149 nafar** o'quvchi ta'lim olmoqda.

(Buyuk Britaniyaning "Pearson", Germaniyaning "Avestos", "Globogate GmbH", "Askania", "bsw Bildungsverk der Sachsischen Virtschaft gGmbH", Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi hamda Janubiy Koreyaning "Deajong Health").

Texnikumlarda o'quv jarayonlari (o'quvchilar davomati, o'zlashtirish ko'rsatkichlari, o'quv reja, dars jadvali) to'liq raqamlashtirildi (prof-emis.uz).

124 ta texnikumlarda jami **2 968 nafar** o'quvchilar **ingliz, nemis, koreys, rus, turk** va **yapon** xorijiy tillariga o'qitilmoqda.

Dual ta'limni ommalashtirish bo'yicha **203 ta tuman (shahar)da** o'quv seminarlari tashkil qilindi. Ushbu seminarlarda **4 mingga yaqin** hokimlik, ish beruvchi korxona va tashkilot rahbarlari ishtirok etdi. Dual ta'lim oid **1 000 nusxada** qo'llanmalar chop etilib ish beruvchilar, hokimlik vakillari va texnikumlarga yetkazilgan.

Texnikum o'quvchilari o'rtasida Samarqand viloyatida **4 ta**, Andijon viloyatida **6 ta** kasb bo'yicha **"Worldskills Uzbekistan"** milliy kasblar chempionati o'tkazildi.

Xitoyda o'tkaziladigan **"WorldSkills Asia Competition Taipei - 2025"** xalqaro chempionatda **4 ta** kasb bo'yicha **4 nafar** o'quvchimiz ishtirok etib, Sirdaryo viloyati Shirin energetika texnikumi o'quvchisi Iqbolmirzo Abdusamadov elektromontaj kasbi bo'yicha faol ishtiroki uchun **WorldSkills International**ning "Best of Nation" – **"Millat faxri"** mukofotiga sazovor bo'ldi.

2025/2026 o'quv yilidan boshlab **14 ta** texnikumda xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish bo'yicha vazirlik va **"Pearson"** kompaniyasi o'rtasida shartnoma imzolangan. Bugungi kunda **14 ta** texnikumda **8 ta** kvalifikatsiya bo'yicha **16 ta kasb** va **mutaxassislikda 1 552 ta** o'quvchi ta'lim olmoqda.

Germaniyaning **"Avestos"** kompaniyasi bilan Toshkent shahri, Farg'ona va Buxoro viloyatlarida **"Malakali kadrlar tayyorlash va kasbiy ta'limga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish"** mavzusida mintaqaviy forumlar tashkil etildi.

11 nafar o'quvchi Germaniyaning **"MODESCHULE BERLIN"** maktabida tajriba almashdi.

Samarqand viloyatidan **12 nafar** o'quvchi Xitoyning **"Xinjang shikoda photoelectric Technologyco"** korxonasida ishlab chiqarish amaliyotiga yuborildi.

6 609 nafar pedagog attestatsiyadan o'tkazildi va malaka toifasiga ega pedagoglar ulushi **35,8 foizga** yetkazildi.

23 nafar rahbar va pedagoglar Belarus Respublikasi kasbiy ta'lim tashkilotlarida stajirovka o'tadi.

168 nomda 106 282 nusxada yangi o'quv adabiyotlari chop etilib, texnikumlarga yetkazildi.

2025-2026 o'quv yilida **329 ta kasb va mutaxassisliklar** (shundan, **119 tasi kredit-modul tizimi**) bo'yicha **kunduzgi ta'lim dasturlari** hamda **202 ta kasb va mutaxassisliklar** bo'yicha **dual ta'lim dasturlari** ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Boshlang'ich kasbiy ta'lim darajasi uchun **14 ta umumta'lim fan dasturlari** ishlab chiqildi.

Mehnat bozori va ish beruvchilarning talablari asosida **107 ta qisqa va o'rta muddatli kurs dasturlari** ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

348 ta o'qitish materiallar to'plamlari tahlil qilinib, shundan **226 tasi** ommalashtirildi.

Kasbiy ta'limga oid **40 dan ortiq o'quv-uslubiy seminarlar** tashkil etildi. **10 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanmalar** ishlab chiqildi.

Kasbiy ta'lim tizimida "**Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari**" respublika ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Belgilangan nominatsiyalar bo'yicha **jami 41 nafar** g'olib aniqlanib, moddiy va ma'naviy rag'batlantirildi.

"**Pearson**" dasturlari joriy etilgan **14 ta** texnikumning rahbar va pedagoglari uchun ta'lim dasturlari bo'yicha **4 marotaba** onlayn va oflayn seminar-trening tashkil etildi.

Kasbiy ta'lim tashkilotlarining jami **5 689 nafar** rahbar va pedagog xodimlarining malakasi oshirildi. Shundan **1 917 nafari** rahbar va **3 772 nafari** pedagog xodimlar.

Xalqaro va milliy reyting

"**QS**" xalqaro reytingida **7 ta** oliygoh joy oldi, jumladan, **TOP-1000** talik ro'yxatdan **Toshkent irrigatsiya universiteti-469, O'zbekiston Milliy universiteti 721-730, Toshkent davlat texnika universiteti 901-950** o'rinni egalladi.

"**THE**" xalqaro reytingida **4 ta** oliygoh joy oldi, jumladan, **TOP-1000** talik ro'yxatdan **Toshkent irrigatsiya universiteti 501-600, shuningdek, Toshkent davlat texnika universiteti 1001-1200, O'zbekiston milliy universiteti 1201-1500, Toshkent davlat texnika universiteti 1501+** o'rinni egalladi.



2025-yilgi “THE Impact Rankings” natijasiga ko‘ra, O‘zbekistonning **59 ta** oliygoh ro‘yxatdan o‘tib, **12 tasi** jahonning TOP-1000 talik universitetlari safidan o‘rin oldi va bu bilan mamlakatimiz Markaziy Osiyo hamda Kavkaz mintaqasida mutlaq yetakchiga aylandi.

2025-yilgi “QS World University Rankings by Subject” fanlar bo‘yicha reytingi natijasiga ko‘ra, O‘zbekistonning **5 ta** oliygoh **8 ta** fan yo‘nalishi bo‘yicha jahonning eng yaxshi **1000 ta** universitetlari qatoriga kiritildi.



Jahon mamlakatlarining innovatsion rivojlanish tendensiyalarini belgilab beradigan “Global innovatsion indeks” reytingida mamlakatimiz 2025-yilda **79 o‘rinni** egalladi (Markaziy Osiyoda 1 o‘rinni egallandi, 2015-yilga nisbatan 43 pog‘onaga yuqori).

Mintaqalar bo‘yicha innovatsion iqtisodiyotlar tasnifida Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlar bo‘yicha **O‘zbekiston ko‘chli to‘rtlikdan** joy oldi.

Bilim va malakalarni baholash sohasida:

jami **50 ga yaqin** turdagi imtihonlar tashkil etilib, **1,8 mln nafarga yaqin** talabgor test sinovlaridan o‘tkazildi;

16 ta chet tilidan **4 ta** ko‘nikma bo‘yicha **360 859 nafar** talabgorning chet tilini bilish darajasini baholash uchun malaka imtihonlari o‘tkazildi;

oliy ta‘lim muassasalarining akademik litseylariga o‘qishga qabul bo‘yicha **49 241 nafar** o‘quvchining bilim darajasi baholandi;

xorijiy va nodavlat ta‘lim tashkilotlaridan davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishini ko‘chirish istagida bo‘lgan **29 225 nafar** talabgor test sinovidan o‘tkazildi;

xorijiy davlatlarda ta‘lim olganlik haqidagi hujjatlarni tan olish bo‘yicha **10 000 nafarga yaqin** talabgor uchun test sinovlari tashkil etildi.

Xorijiy investitsiyalar va grant mablag‘lari

Hisobot davrida **112 mln dollarlik** xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Shuningdek, xorijiy donor tashkilotlari bilan hamkorlikda **100 mln dollarlik** grant mablag‘lari jalb qilindi.

5. O‘z faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirishda bajarilgan ishlar, aniqlangan holatlar va ularni oldini olish borasida ko‘rilgan choralar.

Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati.

2025-yilda ichki audit xizmatlari tomonidan **446 ta** obyektida yangi yondashuv asosida nazorat tadbirlari o'tkazilib, ta'lim jarayonini tashkil etishda yo'l qo'yila-yotgan kamchiliklar bilan birga, **195,3 mlrd so'mlik** moliyaviy **xato va kamchiliklar aniqlanib, bartaraf etildi.**

*Ma'lumot uchun, ichki audit xizmatlari xodimlari tomonidan 2024-yilda jami 97,1 mlrd so'mlik moliyaviy xatoliklar aniqlanib, bartaraf etilgan bo'lsa, 2025-yilda 195,3 mlrd so'mlik moliyaviy xatoliklar bartaraf etilib, bu ko'rsatkich **2,0 baravar** oshgan.*

2025-yilda **389 ta** profilaktika tadbirlari natijasida jami **169,4 mlrd so'm samarasiz**, shundan, 367 ta tadbirlarda **110,2 mlrd so'm noqonuniy xarajatlarning oldi olindi.**

*Ma'lumot uchun: Ichki audit xizmatlari tomonidan 2024-yilda jami **60,1 mlrd so'mlik samarasiz xarajatlari oldi olingan bo'lsa, 2025-yilda oldi olingan samarasiz xarajatlari miqdori **2,8 baravarga oshgan** va **169,4 mlrd so'mni tashkil etgan.*****


O'rganishlar natijasida **149 ta** holatda **35,1 mlrd so'm** mablag'lar maqbullashtirildi, **180 ta** obyektida aniqlangan **25,9 mlrd so'm** holatlar tegishli byudjetlarga tiklandi, 94 ta obyektida **48,2 mlrd so'mlik** uslubiy xatoliklar bartaraf etildi.

Nazorat tadbirlarida aniqlangan **315 ta** holatdagi **14,7 mlrd so'mlik** qonunbuzilishlar bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlar huquqiy baho berish uchun tegishli organlarga yuborildi.

Xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan **109 nafar** xodimlarga nisbatan intizomiy choralar ko'rildi, shulardan **81 nafariga hayfsan** berildi, **4 nafari jarimaga tortildi** va **24 nafari lavozimidan ozod etildi.**


*Mazkur faoliyat davomida aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etish, byudjet hisobini tashkil etish va yuritish, ichki audit faoliyati va yuritayotgan tizimlarni (shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanish) yanada takomillashtirish bo'yicha jami **13 ta taklif** kiritildi.*

Vazirlik "**Situatsion markazi**"da Hisob palatasi "**Masofaviy markazi**" axborot tizimidan yuborilgan **36,4 mingta 54,7 mlrd so'mlik** risklar o'rganilib, **1,9 mlrd so'mlik** xato va kamchiliklar bartaraf etildi.



Vazirlikdagi axborot tizimlari orqali tizim tashkilotlari faoliyatidagi xavflar inson omilisiz masofaviy nazorati kuchaytirildi, 2024-yilda **270 ta** holatda **16,6 mlrd so'mlik** xavflar bartaraf etilgan bo'lsa, 2025-yilda **385 ta** holatdagi **28,7 mlrd so'mlik** xavflar bartaraf etildi. Vazirlikning moliyaviy faoliyatiga oid **6 ta** me'yoriy-huquqiy hujjatlarda

aniqlangan **bo'shliq**ni bartaraf etish maqsadida takomillashtirilgan hujjatlar Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.



6. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash borasida amalga oshirilgan ishlar (umumiy murojaatlar soni, ularni soha, hudud va yo'nalishlar kesimidagi ko'rsatkichlari va boshqa holatlar).

Vazirlikka **2025-yil** davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami **12 908 ta** murojaat kelib tushdi. Murojaatlar soni o'tgan yilga nisbatan **2,9 foizga (376 taga) kamaygan.**

Ma'lumot uchun: 2024-yilda 10 725 ta elektron (83 %), 1 684 ta yozma (13%), 499 ta og'zaki (4%) murojaat kelib tushgan.

Murojaatlarning **15,3 %** Toshkent shahridan, **9,5 %** Qashqadaryo, **8,3 %** Samarqand, **8,1 %** Jizzax, **7,9 %** Toshkent, **7,6 %** Surxondaryo viloyatlaridan va **43,3 %** boshqa hududlardan kelib tushgan.


Mazkur murojaatlarning **20,8 % (2684 ta)** qabul jarayonlari va o'qishga qabul qilish, **13,9% (1807 ta)** o'qishini ko'chirish va qayta tiklash, **10,1% (1418 ta)** diplom masalasi, **7,8% (1015 ta)** ta'lim muassasasi faoliyatiga oid masalalar, **6,9% (897 ta)** kontrakt to'lovi, **4,1% (520 ta)** ta'lim muassasasi xodimlari faoliyatidan norozilik, **3,8% (491 ta)** oraliq nazorat va yakuniy davlat attestatsiyasi, **3,8% (474 ta)** talabalar turar joyi, **3,6% (332 ta)** moliyaviy masalalar (ish haqi, stipendiya, moddiy yordam), **2,4% (313 ta)** ish masalasi, **2,1% (265 ta)** ilmiy tadqiqot faoliyati, **20,7% (2692 ta)**ni esa boshqa masalalar tashkil etadi.

Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, murojaatlarning **3719 tasi (28,9 %)** ijobiy hal etilgan, **3531 tasiga (27,3%)** huquqiy tushuntirish berilgan, **125 tasining (0,9%)** ko'rib chiqilishi tugatilgan, **35 tasi (0,2%)** ko'rmasdan qoldirilgan, **5331 tasi (41,4%)** hududiy idoralar va tegishli vazirliklarga yuborilgan, **167 tasi (1,3%)** ko'rib chiqilmoqda.

Fuqarolar tomonidan eng ko'p yo'llanayotgan masalalar hamda mazkur masalalarning hududlar kesimida dinamikasiga ko'ra, muammoli hududlar aniqlanib, mazkur hududlarda vazirlik rahbariyatining sayyor qabullari tashkil etilmoqda. Xususan, joriy yilda **vazirlik rahbariyati tomonidan hududlarda 11 marotaba sayyor qabul** o'tkazildi.

Oliy, kasbiy va o'rta maxsus ta'lim masalalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday savollarga tezkorlik bilan javob berishni yo'lga qo'yish maqsadida vazirlikda **Ishonch telefonining samarali faoliyati yo'lga qo'yilib**, hisobot davrida fuqarolarning **119 mingdan ortiq** qo'ng'iroqlarga javob berildi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida bir qator yo'nalishlar bo'yicha murojaatlar sonining **kamayishiga erishildi**. Xususan, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha murojaatlar **53,3 foizga**, kontrakt to'lovi bilan bog'liq murojaatlar **27,8 foizga**, talabalar o'qishini ko'chirish **18,1 foizga**, talabalar turar joyi masalalari **12,5 foizga**, qabul jarayonlari va o'qishga qabul qilish bilan bog'liq murojaatlar esa **2,4 foizga** kamaydi.



7. Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, shu jumladan korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etgan yoki bunga imkon yaratib bergan xodimlarga nisbatan ko'rilgan choralar.

2025-yilda korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan xodimlar soni 81 nafarni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich 2024-yilda 90 nafar, 2023-yilda esa 106 nafarni tashkil etgan bo'lib, so'nggi yillarda ushbu turdagi huquqbuzarliklar sonining bosqichma-bosqich kamayib borayotgani kuzatilmoqda.

Sohada korrupsiya omillarini bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlarga qaramasdan, ayrim pedagog-xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish holatlari kuzatilmoqda. Jumladan, **2025-yilda:**

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi 12.500 AQSH doll.;

Buxoro davlat texnika universiteti dekan o'rinbosari 500 AQSH doll.;

Namangan davlat universiteti O'quv-uslubiy boshqarmasi o'quv-metodik ta'minot bo'limi uslubchisi 5.200 AQSH doll.;

Namangan pedagogika instituti O'quv-uslubiy boshqarmasi Talabalar amaliyoti bo'limi bosh mutaxassisi hamda Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti bo'lim mudiri 6.000 AQSH doll.;

Urganch davlat universitetining dekan o'rinbosari 4 mln so'm;

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filialining Ta'lim sifati bo'limi boshlig'i 1.500 AQSH doll.;

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi 450 AQSH doll.;

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi 18,3 mln so'm;

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi 3.800 AQSH doll.;

Toshkent davlat agrar universitet qoshidagi akademik litseyi direktori o'rinbosari 500 AQSH doll.;

Zarafshon shahar "Abu Ali Ibn Sino" nomidagi jamoat salomatligi texnikumi kotibasi va direktori 400 AQSH doll.;

Yakkabog' tumanidagi 1-sonli kasb-hunar maktabi direktori va **3-sonli kasb-hunar maktabi** direktori **1700 AQSH doll.**;

Jondor tuman politexnikumi o'qituvchisi **1 mln so'm**;

Oltinko'l tuman 2-son politexnikumi direktori **100 AQSH doll.**;

Xiva agrotekhnologiyalar texnikumi ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari **13 mln so'm** pullarni olgan.

Davlat xaridlari sohasida **manfaatlar to'qnashuvi holatlari**.

2024-yilda va 2025-yilning yanvar-may oylarida tizim tashkilotlari hamda oliy ta'lim muassasalari tomonidan **11,5 mlrd so'mlik 63 ta** shartnoma davlat xaridlari va raqobat qonunchiligiga zid ravishda affillangan ishtirokchilar qatnashgan savdolar natijasida tuzilgan.

Ma'lumot uchun:

Qarshi davlat universiteti – 3,9 mlrd so'm;

Innovatsion rivojlanish va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi – 2,4 mlrd so'm;

Navoiy davlat konchilik institui – 1,3 mlrd so'm;

2-sonli Nukus Jamoat salomatligi texnikumi – 1,2 mlrd so'm;

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi – 606,4 mln so'm;

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining akademik litseyi – 555,9 mln so'm va hk.

Mazkur holatlar oliygoh mansabdor shaxslarining o'zi yoki yaqin qarindoshlariga tegishli korxonalar bilan shartnoma tuzishi oqibatida kelib chiqqan.

Aniqlangan holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, aybdorlarga nisbatan tegishli chora ko'rilishi yuzasidan chora-tadbirlar tashkillashtirilgan.

Yuqori qayd etilgan qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yilishining **sabablari tahlili**:

1. Pedagog-xodimlarning ijtimoiy himoyasi hamda ta'lim sifatini oshirish, shu jumladan ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga qaratilgan mablag'lar miqdorining ortishi bilan ularni noqonuniy o'zlashtirish bilan bog'liq holatlarning ortgan.

2. Yosh xodimlarning tez va oson moddiy mablag' orttirishga bo'lgan shaxsiy moyilligi evaziga firibgarlik yo'li bilan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishlari.

3. Faoliyati moliya-xo'jalik vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan ayrim xodimlarning shaxsiy axloqsizligi (nopokligi).

4. Ayrim pedagog xodimlar va talabalar o'rtasida o'zaro manfaatdorlik evaziga maishiy korrupsiyaga qo'l urishlari.

5. Oliy ta'lim muassasalarida komplayens nazorat xizmati tashkil etilib, hozirgi kunga qadar ko'plab korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalariga sohani lozim darajada tushunmaydigan, tegishli tajribaga ega bo'lmagan, yuklatilgan vazifalarga befarq bo'lgan xodimlarning tayinlanganligi va hozirga qadar oliy ta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan ushbu xodimlarning ish samaradorligidan kelib chiqib, ularni egallab turgan lavozimidan ozod etish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilinmagan.

6. Ayrim oliy ta'lim muassasalari rahbariyati tomonidan nepotizm, kronizm, manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'yilayotganligi va bu holatlarni bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan chora ko'rilmayotganligi.

8. Ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar, sohada samaradorlik va natijadorlikni oshirish hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning ijro holati.

Ochiq ma'lumotlarni taqdim etish

Vazirlik faoliyatiga oid ma'lumotlarni keng jamoatchilikka ochiq va qulay tarzda yetkazish maqsadida **veb-saytda "Raqamli hukumat" sahifasi tashkil etildi**. Ushbu

sahifada quyidagi alohida bo'limlarda 2025-yil davomida **50 dan ortiq ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlar** o'z vaqtida sifatli joylab borilmoqda:

- **Moliyaviy hisobotlar** – 3299;
- **Moliyaviy hujjatlar**;
- **Ochiq ma'lumotlar** – 6247;
- **Ijtimoiy ahamiyatga oid ma'lumotlar**.

Shuningdek, **Ochiq ma'lumotlar portalida 35 turdagi ma'lumotlar to'plami** belgilangan muddatlarda muntazam joylashtirilib kelinmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardagi faollik

2025-yil davomida vazirlikning ijtimoiy tarmoqlardagi quyidagi rasmiy sahifalarida axborot materiallari e'lon qilindi:

- **Telegram va Facebook** – 11 231 ta post;
- **Instagram** – 5 308 ta post;
- **YouTube** – 122 ta videorolik.

Bundan tashqari, quyidagi turdagi materiallar tayyorlanib, ommaga taqdim etildi:

- **31 ta** infografika;
- **9 863 ta** foto;
- **1 284 ta** video;
- **3 340 ta** matn shaklidagi ma'lumotlar.

OAVda yoritilish ko'rsatkichlari

Vazirlik tomonidan ommaviy axborot vositalarida faol ishtirok etilib, quyidagi chiqishlar amalga oshirildi:

- **Televideniye** – 412 ta chiqish;
- **Radio** – 34 ta chiqish;
- **Elektron nashrlar** – 188 ta maqola;
- **Markaziy bosma nashrlar** – 43 ta maqola.

9. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat loyihalarini amalga oshirish samaradorligi, shu jumladan sohada raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron xizmatlarni joriy etish va rivojlantirish holati.

“Kasbiy ta'lim va qisqa muddatli o'quv kurslari dasturlarini kelishish” axborot tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi, natijada jami **784 ta** o'quv dasturi loyihasi elektron tarzda kelishildi. Shu jumladan boshlang'ich kasbiy ta'lim bo'yicha **338 ta**, o'rta kasbiy ta'lim bo'yicha **315 ta**, o'rta maxsus kasbiy ta'lim bo'yicha **130 ta** va maxsus kurs bo'yicha **1 ta** dastur.

Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlar faoliyatini raqamlashtirish, talabalar bilan ishlash jarayonlarini optimallashtirish hamda tyutor ish samaradorligini oshirishga qaratilgan **“Tyutor-HEMIS”** platformasi ishlab chiqildi.


Shu bilan bir qatorda, akademik litsey o'quvchilari uchun **EMIS EDU** mobil ilovasi ishlab chiqildi. Bugungi kunda ilovadan **20 mingdan ortiq** o'quvchilar foydalanmoqda.

Talabalarining turli yo'nalishlardagi ma'lumotlarini tahlil qilish va ularga individual maslahatlar berishga qodir sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan **HEMIS AI** servislar majmuasi ishlab chiqilib, **my.hemis.uz** platformasiga integratsiya qilindi hamda barcha oliy ta'lim tashkilotlariga joriy etildi. Mazkur servislar orqali GPA, davomat va dars jadvali tahlili,

tavsiyaviy kurslar, plagiat tekshiruvi, moliyaviy holat tahlili va **HEMIS Chatbot AI** kabi modullar talabalar so'rovlarini tezkor va aniq tahlil qilib, zarur javoblarni taqdim etmoqda.




Edu Career — sun'iy intellekt asosida bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish, amaliyot va ko'nikmalarini bozor ehtiyojlariga moslashtirish hamda kasbiy-kompetensiya xaritasini shakllantiruvchi platforma



Talabalar uchun tayyorlangan **o'quv adabiyotlarini** ekspertizadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmati ishga tushirildi.

10. Xodimlarni tanlash, joy joyiga qo'yish, bilim va malakasi shu jumladan, professional ko'nikmalarini oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar.

2025-yilda oliy ta'lim muassasalarining jami **11 627 nafar** rahbar va pedagog kadrlari malaka oshirdi. Ularning **5 559 nafari** (barcha malaka oshirgan tinglovchilarning **47,8 foizi**) qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlarida bevosita o'qish orqali, **2 750 nafari (23,7 foizi)** masofaviy shaklda, **3 318 nafari (28,5 foizi)** esa muqobil shaklda o'z malakalarini oshirdilar.



Xorijiy hamkor ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda **15 ta** qo'shma malaka oshirish kurslarida oliy ta'lim muassasalarining **313 nafar** rahbar va pedagog kadrlari malaka oshirib, kurs tinglovchilariga Double Certificate (qo'sh sertifikatlar) berildi.

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayonlariga jami **385 nafar** xorijiy mutaxassislar jalb etildi. Ularning **39 nafari**ni Amerika, **86 nafari**ni Yevropa,

121 nafarini Osiyo, **137 nafarini** MDH davlatlari hamda **1 nafardan** Avstraliya va Afrika mamlakatlarining mutaxassislari tashkil qildi.

Kadrlar buyurtmachilari talablari asosida **7 ta** qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida oliy ta'lim muassasalarining turli soha xodimlarining **718 nafari** o'z malakalarini oshirdi.

11. Davlat organi va tashkiloti huzuridagi jamoatchilik, maslahat va kollegial organlar faoliyati yuzasidan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Jamoatchilik kengashining faoliyati** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmoni va "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son qaroriga muvofiq yo'lga qo'yilgan.

2025-yil davomida Jamoatchilik kengashi tomonidan **oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, xalqaro reytinglarda o'rnini yaxshilash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish** hamda **ta'lim sifatini yuksaltirishga** qaratilgan keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, **7 ta xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya va seminar**, shuningdek, **5 ta kengash yig'ilishi** tashkil etilib, tadbirlar tafsilotlari vazirlikning rasmiy ijtimoiy tarmoqlari orqali yoritildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Jamoatchilik kengashi hamkorlikda Nodavlat notijorat tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma berish bo'yicha ijtimoiy loyiha tanlovi o'tkazildi. **2025-yil 14-oktyabr** kuni o'tkazilgan **yig'ilishda** kengash a'zolari tomonidan **13 ta loyiha 20 ta mezon asosida baholash natijalariga ko'ra eng yuqori ball olgan "Istiqbol" tadqiqot markazining "Oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'quv-uslubiy ta'minotini rivojlantirish"** loyihasini moliyalashtirish tavsiya etildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining **2026-yil 2-fevraldagi 37-son** buyrug'i bilan Jamoatchilik kengashi **tarkibiga o'zgartirish kiritilib**, yangi tarkibi tasdiqlandi. Jamoatchilik kengashi a'zolari 2026-yil 2-fevral holatida jami **17 kishini** tashkil etib, shundan davlat idoralari xodimlari – **6 (35%)** nafarni, NNT va OAV vakillari – **11 (65%)** nafarni, ayollar esa – **4 (24%)** nafarni tashkil qiladi.

Shuningdek, 2025-yil davomida o'tkazilgan **5 ta kengash yig'ilishi** bayonnomalari vazirlik veb-saytining **"Kengashlar > Jamoatchilik kengashi"** bo'limida joylab borilmoqda.

2025-yil 1-dekabr kuni Fuqarolik jamiyati haftaligi doirasida Jamoatchilik kengashlari forumi bo'lib o'tdi. Unda "Yuksalish" umummilliy harakati tomonidan bir qator yo'nalishlarda faol faoliyat olib borayotgan kengashlar **"Eng faol jamoatchilik kengashi"** nominatsiyasi bilan taqdirlandi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi ham ushbu nufuzli mukofotga munosib deb topildi.

2025-yil 22-dekabr kuni Toshkent shahridagi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida **"Ta'lim tizimida inklyuziv muhit: nogironligi bor shaxslar uchun imkoniyatlar va mavjud to'siqlar"** mavzusida **jamoatchilik eshituvi** bo'lib o'tdi.

"Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi" hamda **"IT-ta'lim uyushmasi"** nodavlat notijorat tashkiloti o'rtasida o'zaro kelishuv va hamkorlik to'g'risida **memorandum** imzolandi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda kengash a'zolari hamda OAV vakillari uchun Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti va Qoraqalpoq davlat universitetiga **press-turlar** tashkil etildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" **2024-yil 25-martdagi 86-son** buyrug'iga muvofiq, vazirlik **Axborot xizmatlari bo'limi** Jamoatchilik kengashining **ishchi organi** va uning faoliyatini **tashkiliy-uslubiy hamda axborot jihatidan**

ta'minlashga **mas'ul** etib belgilangan. Bugungi kunda Axborot xizmatlari bo'limi tomonidan Jamoatchilik kengashiga barcha zarur tashkiliy-uslubiy hamda axborot jihatidan amaliy ko'mak berib kelinmoqda.

Shuningdek, ushbu buyruq bilan tasdiqlangan Jamoatchilik kengashi nizomining **23-bandida** Kengash a'zolari ishdagi faolligi, tashabbuskorligi, Vazirlik nufuzini oshirishga doir sa'y-harakatlari hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda alohida ko'rsatgan xizmatlari uchun ma'naviy va moddiy rag'batlantirilishi mumkin. Rag'batlantirish Vazirlik tashakkurnomasi, faxriy yorlig'i, esdalik sovg'asi bilan taqdirlash, davlat mukofotiga nomzodini tavsiya etish, madaniy ko'ngilochar tomoshalarga taklifnoma hamda biletlar taqdim etish shaklida Vazirlikning byudjetdan tashqari jamg'arma mablag'lari hamda qonun bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan berilishi mumkinligi belgilangan.

Shundan kelib chiqib, **2025-yil 1-dekabr** kuni Fuqarolik jamiyati haftaligi doirasida Jamoatchilik kengashlari forumida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi "**Eng faol jamoatchilik kengashi**" nominatsiyasi bilan taqdirlangani munosabati bilan faol a'zolar vazirlik tashakkurnomasi va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

12. Xorijiy mamlakatlarning shu vazifa va funksiyalarni bajaruvchi organlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, tajriba almashish va ilg'or amaliyotni implementatsiya qilish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar.

2025-yil davomida jami **20 ta xalqaro darajadagi tadbir** (ta'lim va rektorlar forumlari, davra suhbatlari, ko'rgazma va konferensiyalar) o'tkazildi. Ular qatorida uchta tadbir tegishliligi bo'yicha **beshta** xorijiy davlat (Malayziya, Buyuk Britaniya, Latviya, Ozarbayjon va Germaniya) bilan sohadagi hamkorlikda ilk bora tashkil etildi.

Xususan, O'zbekiston-Malayziya birinchi ta'lim forumi, O'zbekiston-Gruziya rektorlar forumi, "Ilm-fan va ta'lim: O'zbekiston-Fransiya ko'prigi" konferensiyasi, Sloveniya savdo-sanoat palatasi va ishbilarmon doira vakillari bilan uchrashuv, Shveysariyaning taraqqiyot va hamkorlik agentligi (SDC) tomonidan moliyalashtirilayotgan VET4UZ loyihasi doirasida xalqaro anjuman, O'zbekiston va Polsha oliy ta'lim muassasalari rektorlarining ikkinchi forumi, "O'zbekiston va Italiya: hamkorlikning yangi ufqlari" mavzusida davra suhbatlari, "Xitoy-Markaziy Osiyo" ta'lim vazirlari birinchi yig'ilishi, O'zbekiston-Buyuk Britaniya ta'lim forumi – 2025, O'zbekiston va Fransiya oliy ta'lim uchinchi forumi, O'zbekiston-Rossiya mintaqalararo oliy ta'lim muassasalari rektorlari konferensiyasi, O'zbekiston – Ozarbayjon oliy ta'lim muassasalari rektorlari II forumi, Ikkinchi O'zbekiston-Xitoy hududlararo forumi doirasida "Ta'lim, fan va texnologiya sohasida innovatsion hamkorlik" forumi, O'zbekiston-Xitoy birinchi kasbiy ta'lim forumi, O'zbekiston – Xitoy Ikkinchi ta'lim forumi, O'zbekiston va Belarus ikkinchi ta'lim forumi, O'zbekiston va Yaponiya oliy ta'lim muassasalari rektorlari forumi, O'zbekiston va Germaniya birinchi oliy ta'lim muassasalari rektorlari forumi, O'zbekiston va Latviya birinchi oliy ta'lim muassasalari rektorlari forumi, O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi oliy ta'lim muassasalari rektorlarining ikkinchi forumi, YUNESKO "Oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olish global konvensiyasi"ga qo'shilish marosimi bo'yicha sayd-ivent.

Ushbu xalqaro tadbirlar doirasida **U-2-U** (Universitet-Universitet) shaklida rektorlar, shuningdek, kasbiy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish vakillari bilan uchrashuvlari o'tkazilib jami **400 dan** ortiq **shartnoma, memorandum va bitimlar** imzolandi. Tadbirlarda jami **500 dan** ziyod xorijiy oliy va kasbiy ta'lim muassasalaridan rektor va prorektorlar darajasida delegatsiyalar ishtirok etdilar.

Vazirlik rahbariyati vakillarining 17 ta davlatlarga xorijiy **xizmat safarlari** (Iordaniya, Malayziya, Rossiya, Fransiya, Gruziya, Chexiya, Eron, Polsha, Vengriya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Sloveniya, Germaniya, Ozarbayjon, Yaponiya, Qatar, Latviya) tashkil etildi. Ular doirasidagi muzokara va biznes-forumlarda 30 dan ortiq loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Hisobot davrida **10 ta xalqaro darajadagi (hukumatlararo va idoralararo) hujjat** imzolandi (*Malayziya, Pokiston, Ozarbayjon, Mongoliya, Serbiya, Sloveniya, Rossiya, Germaniya, Fransiya, YUNESKO*).

Xorijiy davlatlar bilan imzolangan xalqaro shartnomalar:

- "Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi global konvensiyani (Parij, 2019-yil 25-noyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi 2025-yil 11-noyabrdagi O'RQ-1094-son **O'zbekiston Respublikasi Qonuni**;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Malayziyaga rasmiy tashrifi davomida 2025-yil 6-fevral kuni Kuala-Lumpur shahrida imzolangan "**Malayziya Hukumati** va O'zbekiston Respublikasi Hukumati o'rtasidagi oliy ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risida Kelishuv";

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mo'g'ulistonga davlat tashrifi (2025-yil, 24-25-iyun) doirasida imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan **Mo'g'uliston Ta'lim vazirligi** o'rtasida oliy ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risida Bitim";

- Pokiston Islom Respublikasining Bosh vaziri Shahboz Sharifning O'zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrifi (2025-yil 25-26-fevral) doirasida imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan **Pokiston Islom Respublikasi Hukumati** o'rtasidagi ilmiy-texnik va innovatsiya sohasida hamkorlik to'g'risidagi Bitim";

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ozarbayjon Respublikasiga davlat tashrifi (2025-yil 2-3-iyul) doirasida imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan **Ozarbayjon Respublikasi Hukumati** o'rtasida ilm-fan, kasbiy va oliy ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risidagi Bitim".

- Serbiya Respublikasi Prezidenti A.Vuchichning O'zbekistoning tashrifi (2025-yil 28-31-oktyabr) doirasida imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Serbiya Respublikasi Hukumati o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohalarida hamkorlik Bitim".

- Finlyandiya Prezidenti Aleksandr Stubbning O'zbekistoning tashrifi (2025-yil 29-oktyabr-1-noyabr) doirasida imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan Finlyandiya Davlat boshqaruvi instituta (HAUS) o'rtasida ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida xamkorlik to'grisidagi Anglashuv memorandumini".

- Finlyandiya Prezidenti Aleksandr Stubbning O'zbekistoning tashrifi (2025-yil 29-oktyabr-1-noyabr) doirasida imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan Finlyandiya suv forumi o'rtasida rakamlashtirish va suv resurslarini boshqarish sohasida tadqiqot va ta'lim salohiyatinn oshirish to'g'risidagi Hamkorlik memorandumini".

Boshqa yo'nalishlarda amalga oshirilgan tadbirlar:

- 2025-yil 3-4-may kunlari Boku shahrida tashkil etilgan "**O'zbekiston universitetlari ko'rgazmasi**";

- 2025-yil 15-noyabr kuni Toshkent shahrida o'tkazilgan **Turkiy universitetlar ittifoqi (TÜRKÜNİB)**ning 8-yig'ilishi;

- 2025-yil 16-oktyabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida tashkil etilgan "Alp Er To'Nga avlodlari – qoraxoniylar: turkiy dunyo va islom olami qoraxoniylar davrida" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya;

- 2025-yil 4-noyabr kuni Samarqand shahrida o'tkazilgan Oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olish global konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi bo'yicha **taqdimot (side event)**;

- Qirg'iz fuqarolariga O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish uchun ajratilgan **20 ta kvota** (*hozirgi kunda 2 nafar qirg'iz fuqarosi tahsil olmoqda*).

13. O'z faoliyatidagi ijobiy va salbiy ahamiyatdagi eng muhim ko'rsatkichlarning oldingi yillardagi ko'rsatkichlarga nisbatan qiyosiy tahlili (o'sish va pasayish dinamikasida).

So'nggi yillardagi oliy ta'lim tizimida asosiy e'tibor mamlakatimiz yoshlarini ta'lim olishi uchun keng imkoniyat va zarur sharoit yaratishga qaratildi. Natijada, o'tgan 9 yil mobaynida **oliy ta'lim tashkilotlari soni 77 tadan** (70 ta davlat, 7 ta xorijiy) **207 taga** (101 ta davlat, 32 ta xorijiy va 74 ta nodavlat) yetkazildi, ularga **qabul 3,5 barobarga** ortdi.

So'nggi yillarda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va xususiy sektorni jalb qilish orqali **74 ta nodavlat** oliy ta'lim tashkilotlari tashkil etildi. **Xorijiy** oliy ta'lim tashkilotlari soni **32 taga**, davlat oliy ta'lim tashkilotlari **101 taga** yetkazildi.

Yoshlarni oliy ta'lim bilan **qamrov** darajasi **9 foizdan 44 foizga** yetdi.

2017-yilda talabalar soni **279 ming nafar** bo'lgan bo'lsa 2025-yilga kelib **1,7 mln nafardan** ortdi.

2017 yilda talabalar turar joylari ehtiyojning bor-yo'g'i **28 foizini** qoplagan bo'lsa, **2025 yilga** kelib qamrov darajasi **57 foizga** yetkazildi.

So'nggi 9 yilda ilmiy darajali pedagoglar ulushi respublika bo'yicha **32,7 foizdan 50,0 foizga** o'sdi.

2017-2025-yillar davomida doktoranturaga ajratilgan kvotalar soni **7,1 barobarga** oshdi va (2017-yilda 242 ta) 2025-yilda **5 250 taga** yetkazildi.

Jahon mamlakatlarining innovatsion rivojlanish tendensiyalarini belgilab beradigan **"Global innovatsion index"** reytingida mamlakatimiz 2025-yilda **79 o'rinni** egalladi (*Markaziy Osiyoda 1 o'rinni egallandi, 2015-yilga nisbatan 43 pog'onaga yuqori*).

2025-yilda korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan xodimlar soni **81 tani** tashkil etgan.

Soha xodimlarining korrupsiyaviy jinoyatchilik (sudlanganlik) ko'rsatkichi 2024-y. – 90 nafar, 2023-y. – 106 nafarni tashkil etgan.